



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



**ECOLOGICAL, MILITARY-POLITICAL, AND SOCIO-ECONOMIC FACTORS OF
MIGRATION PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN ANTIQUITY AND THE EARLY
MIDDLE AGES**

Khumoyun Alisherovich Nazarov

(Phd)

National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

humoyunjon1992@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Azizbek Salimov

National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

salimovaziz3034@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, migration, ecological factors, aridization, pastoral tribes, sedentary population, Achaemenids, Alexander the Great, Huns, Yuezhi, Hephthalites, Turkic tribes, statehood, urbanization, ethnocultural integration.

Received: 27.05.26

Accepted: 28.05.26

Published: 29.05.26

Abstract: This article analyzes, from a historical and archaeological perspective, the ecological, military-political, socio-economic, and ethnocultural factors of migration processes that took place in Central Asia in antiquity and the early Middle Ages. The study reveals the influence of the region's geographical position within the Eurasian continent, its natural and climatic conditions, processes of aridization, river valleys, foothill zones, pasture resources, mining raw materials, and trade-communication routes on population movements. On the basis of archaeological materials, ancient Persian inscriptions, accounts of classical authors, Chinese chronicles, Arab-Persian sources, and modern historiographical interpretations, migrations are assessed not as accidental demographic phenomena in the history of Central Asia, but as complex historical processes that shaped economic-cultural types, institutions of statehood, urban traditions, and ethnocultural integration. The article examines migration processes in the context of ecological crises, struggles for water and pasture resources, political pressure, military campaigns, control over trade routes, and interactions between the local population and incoming migrant groups.

QADIM VA ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODAGI MIGRATSION JARAYONLARNING EKOLOGIK, HARBIY-SIYOSIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI

Humoyun Alisherovich Nazarov

(PhD)

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

humoyunjon1992@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Azizbek Salimov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

salimovaziz3034@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, migratsiya, ekologik omillar, aridizatsiya, chorvador qabilalar, o'troq aholi, Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, hunlar, yue-chjilar, eftaliylar, turkiy qavmlar, davlatchilik, shaharsozlik, etnomadaniy integratsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadim va ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida kechgan migratsion jarayonlarning ekologik, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy omillari tarixiy-arxeologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaning Yevrosiyo qit'asidagi geografik o'rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti, aridizatsiya jarayonlari, daryo vodiylari, tog'oldi hududlari, yaylov resurslari, tog'-kon xomashyosi va savdo-kommunikatsiya yo'llarining aholi harakatiga ta'siri ochib beriladi. Arxeologik materiallar, qadimgi fors bitiklari, antik mualliflar xabarlari, Xitoy solnomalari, arab-fors manbalari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi qarashlar asosida migratsiyalar Markaziy Osiyo tarixida tasodifiy demografik hodisa emas, balki xo'jalik-madaniy tiplar, davlatchilik institutlari, shaharsozlik an'analari va etnomadaniy integratsiyani shakllantirgan murakkab tarixiy jarayon sifatida baholanadi. Maqolada migratsion jarayonlar ekologik inqiroz, suv va yaylov resurslari uchun kurash, siyosiy bosim, harbiy yurishlar, savdo yo'llari nazorati va mahalliy aholi bilan ko'chib kelgan guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kesimida tahlil qilinadi.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ, ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ДРЕВНОСТИ И РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Хумоюн Алишерович Назаров

(PhD)

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

humoyunjon1992@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Азизбек Салимов

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

salimovaziz3034@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, миграция, экологические факторы, аридизация, скотоводческие племена, оседлое население, Держава Ахеменидов, Александр Македонский, гунны, юэчжи, эфталиты, тюркские народы, государственность, градостроительство, этнокультурная интеграция.

Аннотация: В данной статье с историко-археологической точки зрения анализируются экологические, военно-политические, социально-экономические и этнокультурные факторы миграционных процессов, происходивших на территории Центральной Азии в древности и раннем Средневековье. В исследовании раскрывается влияние географического положения региона в Евразии, природно-климатических условий, процессов аридизации, речных долин, предгорных территорий, пастбищных ресурсов, горнорудного сырья и торгово-коммуникационных путей на передвижение населения.

На основе археологических материалов, древнеперсидских надписей, сообщений античных авторов, китайских летописей, арабо-персидских источников, а также современных историографических подходов миграции рассматриваются не как случайное демографическое явление в истории Центральной Азии, а как сложный исторический процесс, сыгравший важную роль в формировании хозяйственно-культурных типов, институтов государственности, традиций градостроительства и этнокультурной интеграции.

В статье миграционные процессы анализируются через призму экологических кризисов, борьбы за водные и пастбищные ресурсы, политического давления, военных походов, контроля над торговыми путями, а также взаимоотношений между местным населением и переселявшимися группами.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan Yevrosiyo materigining muhim tarixiy-geografik markazlaridan biri bo'lib kelgan. Mintaqaning sharqda Xitoy, janubda Hindiston, Eron va Yaqin Sharq, g'arbda Kaspiybo'yi hamda Sharqiy Yevropa, shimolda esa Janubiy Sibir, Ural va Volgabo'yi dashtlari bilan tutashganligi uning tarixiy taraqqiyotida alohida o'rin tutgan. Ana shu geografik joylashuv Markaziy Osiyoni turli qabila va xalqlar, xo'jalik-madaniy tiplar, diniy qarashlar, siyosiy tizimlar va savdo-kommunikatsiya yo'llari kesishgan makonga aylantirgan.

Qadim va ilk oʻrta asrlar tarixida migratsion jarayonlar oddiy aholi koʻchishi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ekologik va madaniy oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliq hodisa sifatida namoyon boʻladi. Bu jarayonlar ayrim hollarda tabiiy muhitning oʻzgarishi, suv va yaylov resurslarining kamayishi, iqlimning quruqlashuvi natijasida yuz bergan boʻlsa, boshqa holatlarda harbiy bosqinlar, siyosiy tazyiqlar, savdo yoʻllarini nazorat qilish, yangi yer va xomashyo manbalarini egallashga intilish bilan bogʻliq boʻlgan.

Markaziy Osiyo sharoitida migratsiyalarni oʻrganish, avvalo, oʻtroq voha madaniyatlari bilan koʻchmanchi chorvador jamoalar oʻrtasidagi munosabatlarni anglashni talab qiladi. Chunki mintaqa tarixida voha va dasht oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar doimiy qarama-qarshilik shaklida emas, balki koʻp hollarda iqtisodiy almashinuv, madaniy taʼsir, siyosiy ittifoq va etnomadaniy sintez tarzida kechgan. Shu bois Markaziy Osiyo tarixini migratsion jarayonlarsiz toʻliq tasavvur etish mumkin emas.

Mazkur maqolaning maqsadi qadim va ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyodagi migratsion jarayonlarning asosiy omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning mintaqadagi davlatchilik, shaharsozlik, xoʻjalik hayoti va etnomadaniy jarayonlarga taʼsirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, xronologik izchillik, hududiy tahlil, manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Migratsion jarayonlar faqat bitta omil bilan emas, balki ekologik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sabablarning oʻzaro bogʻliqligi asosida talqin qilindi. Tadqiqotning manbaviy asosini Sarazm, Sopollitepa, Jarqoʻton, Gonur, Dashli, Qayroqqum, Qovunchi, Chust, Tozabogʻyob kabi arxeologik madaniyat va yodgorliklarga oid materiallar, “Avesta”, qadimgi fors bitiklari, Gerodot, Arrian, Kvint Kursiy Ruf kabi antik mualliflar xabarlarini, Xitoy solnomalari, Tabariy, Narshaxiy, Beruniy, Mahmud Koshgʻariy kabi mualliflar asarlari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Asosiy qism. Markaziy Osiyo hududining tabiiy-geografik xususiyati uning tarixiy taraqqiyotida muhim rol oʻynagan. Mintaqaning choʻl, dasht, togʻoldi, voha va daryo vodiylaridan iborat murakkab landshafti qadimgi aholining joylashuvi va xoʻjalik yuritish shakllarini belgilab bergan. Ayniqsa, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Murgʻob, Tedjen kabi daryo havzalari qadimdan aholi joylashuvi, dehqonchilik va shaharsozlik taraqqiyotining asosiy markazlari boʻlgan. Shu bilan birga, ushbu daryo tizimlarining oʻzgaruvchanligi, iqlimiy fluktuatsiyalar, ayrim davrlarda aridizatsiya jarayonlarining kuchayishi aholining bir hududdan boshqa hududga siljishiga sabab boʻlgan.

Markaziy Osiyo sharoitida suv resurslari doimo strategik ahamiyat kasb etgan. Suv manbalari mavjud boʻlgan hududlarda oʻtroq dehqonchilik madaniyati shakllangan boʻlsa, keng dasht va togʻoldi yaylovlarida chorvador jamoalar yashagan. Biroq bu ikki xoʻjalik-madaniy tip bir-biridan butunlay ajralgan holda mavjud boʻlmagan. Ular oʻzaro iqtisodiy almashinuv, mavsumiy harakat,

savdo-sotiq va ayrim hollarda siyosiy-harbiy to'qnashuvlar orqali bog'langan. Ana shu jarayonda migratsiya mintaqa hayotining doimiy va muhim omillaridan biriga aylangan.

So'nggi paleolit va mezolit davrlaridan boshlab qadimgi aholi tog'li va tog'oldi hududlardan daryo vodiylari, ko'l bo'ylari va tekisliklarga siljiy boshlagan. Bu jarayon avvalo tabiiy muhitga moslashuv bilan bog'liq edi. Muzliklarning chekinishi, iqlimning ilishi, flora va faunaning ko'payishi ovchilik, termachilik va baliqchilik imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu sababli qadimgi jamoalar suv manbalari, hayvonot dunyosi va tosh qurollar tayyorlash uchun zarur xomashyo mavjud bo'lgan hududlarga joylashgan. Bu ilk migratsiyalar hali siyosiy mazmunga ega bo'lmasa-da, keyingi tarixiy davrlarda yuzaga kelgan hududiy joylashuv va xo'jalik shakllarining dastlabki asoslarini yaratgan.

Neolit davriga kelib Markaziy Osiyoda turli xo'jalik-madaniy tiplar shakllandi. Orolbo'yi va Xorazm hududlarida Kaltaminor madaniyati, Kopetdog' etaklarida Jaytun madaniyati, janubiy hududlarda esa ilk dehqonchilik jamoalari vujudga keldi. Kaltaminor madaniyati baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan bog'liq bo'lsa, Jaytun madaniyatida dehqonchilik va chorvachilikning dastlabki shakllari rivojlandi. Bu jarayonlar qadimgi aholi muhitga moslashibgina qolmay, balki uni xo'jalik ehtiyojlari asosida o'zgartira boshlaganini ko'rsatadi [1, 84-b.].

Eneolit va bronza davrlariga kelib, migratsion jarayonlar yanada murakkablashdi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi xo'jalik — dehqonchilik, chorvachilik, metallurgiya va hunarmandchilikning rivojlanishi aholi harakatining yangi omillarini yuzaga keltirdi. Endilikda migratsiyalar faqat oziq-ovqat izlash bilan emas, balki sug'oriladigan yerlar, chorva uchun yaylovlar, metall xomashyosi, qimmatbaho toshlar va savdo yo'llarini egallash bilan ham bog'liq bo'la boshladi. Zarafshon vohasidagi Sarazm madaniyati bu jarayonning yorqin namunalaridan biridir. Tadqiqotchilar Sarazmni qadimgi dehqonchilik, hunarmandchilik va metallurgiya markazlaridan biri sifatida baholaydi. A. Asqarovning fikricha, Sarazm madaniyati shakllanishida janubiy madaniy-xo'jalik hududlari, xususan, Belujiston, Janubiy Turkmaniston va Eron hududlari bilan aloqador aholi guruhlarining o'rni katta bo'lgan [2, 112-b.]. Bu esa Zarafshon vohasining qadimdan migratsion va iqtisodiy aloqalar markazi bo'lganini ko'rsatadi.

Bronza davrida Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasining shakllanishi Markaziy Osiyo tarixida muhim bosqich bo'ldi. Gonur, To'g'oloq, Dashli, Sopolli, Jarqo'ton kabi yodgorliklar yuksak darajadagi dehqonchilik, me'morchilik, diniy marosimlar va hunarmandchilik taraqqiyotidan dalolat beradi. V.I. Sarianidi va V.M. Masson tadqiqotlarida bu madaniy majmuaning shakllanishi Yaqin Sharq, Eron va Janubiy Turkmaniston hududlari bilan bog'liq keng aloqalar tizimi doirasida talqin qilinadi [3, 146-b.; 4, 211-b.]. Ushbu madaniy muhitning shakllanishida janubdan kelgan dehqonchilik va shaharsozlik an'analari bilan mahalliy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muhim rol o'ynagan.

Bronza davrida shimoliy dasht hududlaridan janubga tomon Andronovo madaniyati vakillarining siljishi ham mintaqa tarixida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning Janubiy Turon, Zarafshon, Farg'ona, Choch va Baqtriya hududlariga kirib kelishi arxeologik materiallarda yaqqol aks etadi. B.A. Litvinskiy tomonidan Qayroqqum hududida aniqlangan Andronovo yodgorliklari, metallurgiya ustaxonalari va dafn marosimlari bu migratsiyaning moddiy dalillaridandir [5, 63-b.]. Andronovo jamoalarining janubga siljishi faqat harbiy yoki etnik harakat emas, balki chorvachilik, metallurgiya va yangi yaylovlar bilan bog'liq iqtisodiy jarayon edi. Ular tog'oldi hududlarda chorvachilik uchun qulay yaylovlarni, shuningdek, metall xomashyosi mavjud konlarni egallashga intilgan. Bunday harakatlar ayrim hollarda mahalliy dehqon jamoalari bilan to'qnashuvlarga, boshqa hollarda esa o'zaro madaniy ta'sir va assimilyatsiya jarayonlariga olib kelgan.

Ilk temir davridan boshlab Markaziy Osiyoda ko'chmanchi chorvador qabilalarning roli yanada ortdi. Saklar, massagetlar, daxlar, skiflar va sarmatlar kabi qabilalar Yevrosiyo dashtlarida faol harakat qilgan. Antik mualliflar, ayniqsa Gerodot, bu qabilalar haqida muhim ma'lumotlar qoldirgan. Gerodot xabarlarida massagetlarning Kaspiy dengizining sharqiy sohillari va Orolbo'yi hududlari bilan bog'liq tarzda tilga olinishi Markaziy Osiyo dashtlarida ko'chmanchi va yarimko'chmanchi jamoalar mavjud bo'lganini ko'rsatadi [6, 201-b.].

Ko'chmanchi chorvadorlikning shakllanishi ekologik va iqtisodiy sharoit bilan bevosita bog'liq edi. Chorva sonining ortishi, yaylovlarning mavsumiy almashinuvi, suv manbalariga ehtiyoj qabilalarni doimiy harakatda bo'lishga majbur qilgan. Bu harakat betartib emas, balki mavsumiy, yo'nalishli va an'anaviy ko'chish tizimiga asoslangan edi. Ko'chmanchi qabilalar bir tomondan o'z chorvachilik xo'jaligini saqlab qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'troq voha aholisi bilan savdo-sotiq va mahsulot ayirboshlash munosabatlariga kirishgan. Bu esa dasht va voha madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirgan.

Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Ahamoniylar imperiyasining Markaziy Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi migratsion jarayonlarga yangi mazmun berdi. Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Marg'iyona va sak qabilalari Ahamoniylar siyosiy tizimi bilan bevosita aloqaga kirishdi. Bu jarayon mahalliy aholining imperiya ma'muriyati, soliq tizimi, harbiy xizmat va savdo munosabatlariga jalb etilishiga olib keldi. Ahamoniylar davrida Markaziy Osiyo xalqlarining bir qismi imperiya qo'shinlari tarkibida turli harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Bu holat harbiy migratsiyaning o'ziga xos shakli hisoblanadi [7, 118-b.].

Ahamoniylar tomonidan joriy etilgan satrapliklar tizimi, soliq majburiyatlari, harbiy xizmat va yo'l-kommunikatsiya tarmoqlari Markaziy Osiyoni keng imperiya makoniga bog'ladi. Bu esa aholi harakatining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Ayrim guruhlar imperiya markazlariga olib ketilgan, boshqalari esa harbiy xizmat yoki ma'muriy ehtiyojlar sababli boshqa hududlarga joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Ahamoniylar bosimi mahalliy qabilalarning ayrim qismini

shimoliy-sharqiy va sharqiy hududlarga siljishga majbur qilgan. Demak, bu davrda migratsiyalar ikki tomonlama kechgan: bir tomondan, imperiya ichidagi majburiy va harbiy-siyosiy ko'chishlar; ikkinchi tomondan, bosimdan qochish yoki yangi siyosiy sharoitga moslashish bilan bog'liq mahalliy harakatlar.

Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga yurishlari mintaqa tarixida tub burilish yasadi. Baqtriya va Sug'diyonada olib borilgan harbiy harakatlar mahalliy aholining joylashuvi, siyosiy muhit va madaniy aloqalarga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Arrian va Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlarida Aleksandrning Baqtriya, Sug'diyona va Sirdaryo bo'ylaridagi harbiy yurishlari batafsil tasvirlangan [8, 246-b.]. Aleksandr yurishlari natijasida mintaqada harbiy-ma'muriy garnizonlar, yangi shaharlar va istehkomlar barpo etildi. Aleksandriya Esxata kabi shaharlarning qurilishi ellinistik siyosiy nazoratni mustahkamlashga qaratilgan edi. Bu jarayon yunon-makedon aholisi, harbiylar, ma'murlar va hunarmandlarning mintaqaga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Aleksandr yurishlari mahalliy muhitga ikki xil ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, harbiy yurishlar ko'plab vayronagarchilik, majburiy ko'chish va qarshilik harakatlarini yuzaga keltirdi. Ikkinchi tomondan, ellinistik madaniyat, me'morchilik, pul muomalasi, harbiy boshqaruv va shaharsozlik an'analari mahalliy madaniyat bilan aralashib, yangi madaniy sintezni shakllantirdi. Aleksandrning mahalliy zodagonlar bilan nikoh siyosati, mahalliy yoshlarni yunoncha harbiy va madaniy tarbiyaga jalb etishi, yunon-makedon harbiylarining mintaqada joylashtirilishi migratsion jarayonlarning siyosiy va madaniy shakllarini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Markaziy Osiyo tarixida hunlar va yue-chjilar harakati alohida ahamiyat kasb etdi. Xitoy manbalarida hunlar syunnu, yue-chjilar esa yuechji yoki dayuechji nomlari bilan tilga olinadi. Bu qabilalarning harakati Sharqiy Osiyo, Ichki Osiyo va Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq edi [9, 74-b.]. Hunlar va Xitoy Xan imperiyasi o'rtasidagi raqobat, yaylovlar va savdo yo'llari ustidan nazorat uchun kurash, qabilalararo ziddiyatlar yue-chjilarning o'z yurtlarini tark etib, janubi-g'arbga siljishiga sabab bo'ldi. Yue-chjilar dastlab Ili vodiysi va Yettisuv orqali harakatlanib, keyinchalik Baqtriya hududiga kirib kelgan.

Yue-chjilarning Baqtriyaga joylashuvi Markaziy Osiyo tarixida katta siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Ular Yunon-Baqtriya siyosiy merosi ustida yangi davlat tuzilmalarini shakllantirdi. Keyinchalik yue-chjilar tarkibidagi kushonlar kuchayib, Kushon davlatiga asos soldi. Kushon davlati esa Markaziy Osiyoda qadimgi davrning eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu jarayon migratsiyaning davlat tuzilishidagi rolini yaqqol ko'rsatadi. Yue-chjilar harakati faqat ko'chmanchi qabilaning siljishi emas, balki Baqtriya, Sug'd, Hindiston va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi yangi siyosiy-madaniy tizimning shakllanishiga olib kelgan tarixiy hodisa edi.

Milodiy IV–VI asrlarda Markaziy Osiyoda xioniylar, kidariylar va eftaliylar kabi ko‘chmanchi asosli siyosiy kuchlar faol rol o‘ynadi. Bu davrda Kushon davlati zaiflashib, mahalliy voha hokimliklari va ko‘chmanchi elitalar o‘rtasida yangi siyosiy muvozanat shakllandi. Eftaliylar haqida pahlaviy, arman, vizantiya, xitoy, hind, arab va fors manbalarida turli ma’lumotlar uchraydi. Ular manbalarda abdal, xaytal, eftal, oq hun kabi nomlar bilan tilga olinadi. Tadqiqotchilar eftaliylarning kelib chiqishi va etnik tarkibi masalasida turli qarashlarni ilgari surgan bo‘lsalar-da, ularning Markaziy Osiyoga ko‘chib kelib, mahalliy voha jamiyatlari bilan faol siyosiy va madaniy aloqaga kirishgani aniq [10, 31-b.].

Eftaliylar Sug‘d, Baqtriya, Choch, Farg‘ona va Shimoliy Hindiston hududlarida muhim siyosiy kuchga aylandi. Ular mahalliy boshqaruv tizimlarini butunlay yo‘q qilmagan, aksincha, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar bilan murosa asosida siyosiy hukmronlik o‘rnatgan. Bu holat ko‘chmanchi siyosiy elitalar bilan o‘troq voha aholisi o‘rtasidagi simbiozning yorqin namunasidir. Eftaliylar davrida savdo yo‘llari, tangalar muomalasi, harbiy tashkilot, yer egaligi va shahar hayotida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. Ular mahalliy aholi bilan aralashib, mintaqaning etnomadaniy qiyofasiga ta’sir ko‘rsatdi.

VI asrdan boshlab Markaziy Osiyo tarixida turkiy qavmlar yetakchi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Turk xoqonligining shakllanishi, uning Sharqiy va G‘arbiy qanotlarga bo‘linishi, Sug‘d, Choch, Farg‘ona, Toxariston, Yettisuv va Sharqiy Turkiston bilan aloqalari mintaqa tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Turkiy qavmlarning migratsiyasi uzoq davom etgan murakkab jarayon bo‘lib, u faqat Oltoy hududi bilan cheklanmaydi. Xitoy manbalari, turkiy bitiktoshlar va zamonaviy tadqiqotlarda turkiy qavmlarning Ichki Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Sirdaryo bo‘ylari va Markaziy Osiyoning voha hududlariga siljishi haqida ma’lumotlar mavjud [11, 184-b.].

Turk xoqonligi davrida turklar va sug‘diylar o‘rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Sug‘diylar savdo, diplomatiya, yozuv, diniy targ‘ibot va shahar madaniyati sohalarida turkiy siyosiy muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida Balasog‘un, Taroz, Sayram kabi shaharlarda turkiy va sug‘diy tillarning yonma-yon ishlatilgani qayd etiladi. Bu esa ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ko‘p tilli, ko‘p madaniyatli va integratsiyalashgan muhit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [12, 96-b.].

Turkiy qavmlar migratsiyasi mintaqaning siyosiy tizimida xoqonlik, yabg‘ulik, tudunlik kabi boshqaruv shakllarining yoyilishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, turkiy harbiy-siyosiy institutlar mahalliy voha an‘analari bilan uyg‘unlashdi. Natijada Markaziy Osiyoda ko‘chmanchi va o‘troq siyosiy madaniyatlarning sintezi yuzaga keldi. Sug‘diy savdogarlar esa turk xoqonligi doirasida xalqaro savdo aloqalarining asosiy vositachilaridan biriga aylandi. Bu jarayon Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarining yanada jonlanishiga xizmat qildi.

Migratsion jarayonlar Markaziy Osiyoda davlatchilik taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona va Choch kabi tarixiy-madaniy viloyatlar shakllanishida mahalliy rivojlanish bilan birga tashqi va ichki migratsion oqimlarning ham roli katta bo'lgan. Bronza davrida Sopollitepa, Jarqo'ton, Gonur va Dashli kabi markazlar ilk shaharsozlik va davlatchilik belgilarini namoyon etdi. Bu markazlarda saroy, ibodatxona, mudofaa devorlari, hunarmandchilik ustaxonalari va sug'orish tizimlari shakllandi. Bunday murakkab ijtimoiy tuzilmalarning paydo bo'lishi faqat mahalliy evolyutsiya emas, balki migratsiyalar va mintaqalararo aloqalar bilan ham bog'liq edi.

Ahamoniylar davrida satraplik tizimi, soliq tartibi, ma'muriy boshqaruv va imperiya yo'llari Markaziy Osiyodagi davlatchilik tajribasiga yangi elementlar olib kirdi. Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar davrida esa harbiy-ma'muriy shaharlar, ellinistik me'morchilik va pul muomalasi kengaydi. Yue-chjilar va Kushonlar davrida Baqtriya va unga tutash hududlarda yirik imperiyaviy boshqaruv shakllandi. Kushon davlati Markaziy Osiyoni Hindiston, Eron, Xitoy va Rim dunyosi bilan bog'lagan muhim siyosiy va iqtisodiy markazga aylandi. Bu davrda shaharlar nafaqat ma'muriy markaz, balki savdo, hunarmandchilik, din va madaniyat markazi sifatida rivojlandi.

Eftaliylar va turkiy qavmlar davrida esa mintaqada voha shaharlarining siyosiy ahamiyati saqlangan holda, ko'chmanchi harbiy-siyosiy elitalar ta'siri kuchaydi. Bu davrda Choch, Sug'd, Farg'ona, Toxariston va Xorazm shaharlarida savdo, tangalar muomalasi, diplomatik aloqalar va mahalliy hokimliklar faoliyati rivojlandi. Shaharlar ko'chmanchi va o'troq dunyo o'rtasidagi bog'lovchi markazga aylandi.

Migratsion jarayonlar Markaziy Osiyoning etnomadaniy qiyofasini shakllantirgan asosiy omillardan biri bo'ldi. Mintaqada turli davrlarda hind-yevropa tilli, eroniy tilli, prototurkiy, turkiy, hun, yue-chji, eftaliy, sug'diy, xorazmiy, baqtriy va boshqa guruhlar o'zaro aloqaga kirishgan. Bunday aloqalar har doim ham ziddiyatli bo'lmagan. Ko'p hollarda ko'chib kelgan guruhlar mahalliy avtohton aholi bilan iqtisodiy manfaatlar asosida murosa qilgan. Chorvadorlar vohalardan don, hunarmandchilik mahsulotlari va tayyor buyumlar olgan bo'lsa, o'troq aholi chorvadorlardan go'sht, sut mahsulotlari, jun, teri, ot va tuya olgan. Bu almashinuv uzoq muddatli madaniy yaqinlashuvga olib kelgan.

Nikoh munosabatlari, harbiy ittifoqlar, savdo-sotiq, diniy ta'sirlar va qo'shma siyosiy tuzilmalar etnomadaniy integratsiyani kuchaytirgan. Natijada Markaziy Osiyoda sof etnik ajralishdan ko'ra, ko'proq aralash, ko'p qatlamli madaniy muhit yuzaga kelgan. Turk-sug'd munosabatlari bu jarayonning eng yorqin misollaridan biridir. Sug'diylar savdo va diplomatiya orqali turkiy siyosiy muhitga kirib borgan, turklar esa Sug'd va boshqa voha madaniyatlari bilan aloqada bo'lib, o'troq madaniyat unsurlarini o'zlashtirgan. Bu jarayon Markaziy Osiyoda turkiy-sug'diy madaniy sintezni shakllantirgan.

Xulosa. Qadim va ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan migratsion jarayonlar murakkab, koʻp omilli va uzoq davom etgan tarixiy hodisa boʻlgan. Ularni faqat bir etnik guruhning bir hududdan ikkinchi hududga koʻchishi sifatida tushunish yetarli emas. Migratsiyalar mintaqaning ekologik sharoiti, iqtisodiy ehtiyojlari, siyosiy vaziyati, harbiy toʻqnashuvlari va madaniy aloqalari bilan uzviy bogʻliq holda kechgan.

Markaziy Osiyodagi migratsiyalarning dastlabki va muhim omillaridan biri ekologik-geografik sharoit edi. Iqlimiy oʻzgarishlar, aridizatsiya, suv manbalari va yaylovlarning qisqarishi aholini yangi hududlarga siljishga majbur qilgan. Iqtisodiy omillar — chorva uchun yaylovlar, dehqonchilikka yaroqli yerlar, metall va qimmatbaho tosh konlari, savdo yoʻllari — migratsion harakatlarni kuchaytirgan. Sarazm, Baqtriya-Margʻiyona majmuasi, Andronovo madaniyati va Qayroqqum yodgorliklari bu jarayonlarning arxeologik dalillari hisoblanadi.

Ahamoniylar bosqini va Aleksandr Makedonskiy yurishlari mintaqadagi migratsiyalarga harbiy-siyosiy tus berdi. Harbiy yurishlar, garnizonlar, yangi shaharlar qurilishi va aholining majburiy koʻchirilishi Markaziy Osiyo demografik va madaniy muhitiga taʼsir koʻrsatdi. Hunlar, yue-chjilar, eftaliylar va turkiy qavmlar migratsiyasi esa mintaqaning siyosiy xaritasini tubdan oʻzgartirdi. Yue-chjilar harakati Kushon davlatining shakllanishiga, eftaliylar va turkiy qavmlar esa ilk oʻrta asr davlatchiligi, harbiy-siyosiy tizim va etnomadaniy integratsiyaga kuchli taʼsir koʻrsatdi.

Migratsiyalar Markaziy Osiyoda mahalliy avtohton aholi bilan koʻchib kelgan guruhlar oʻrtasida murakkab, ammo samarali madaniy sintezni yuzaga keltirdi. Natijada mintaqada koʻp etnik, koʻp tilli va koʻp madaniyatli tarixiy muhit shakllandi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo qadim va ilk oʻrta asrlarda migratsion jarayonlar orqali shakllangan murakkab tarixiy-madaniy hudud sifatida namoyon boʻladi. Mintaqaning davlatchiligi, shaharsozligi, xoʻjalik madaniyati va etnomadaniy qiyofasi migratsiyalar, ekologik sharoit, siyosiy kuchlar va madaniy aloqalarning oʻzaro taʼsiri natijasida rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Asqarov A. Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston NMIU, 2015. – 680 b.
2. Asqarov A. Qadimgi Turon: eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalari tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2023. – 360 b.
3. Sarianidi V.I. Margʻush: buyuk madaniyat sirlari va haqiqatlari. – Ashxobod, 2008. – 342 b.
4. Masson V.M. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining shakllanishi. – Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg universiteti nashriyoti, 2006. – 384 b.
5. Litvinskiy B.A. Qayroqqum qadimiy yodgorliklari. – Dushanbe, 1962.
6. Gerodot. Tarix: toʻqqiz kitobda. G.A. Stratanovskiy tarjimasini va izohlari asosida. – Leningrad: Nauka, 1972. – 600 b.

7. Dandamayev M.A. Ahamoniylar davlatining siyosiy tarixi. – Moskva: Nauka, 1985. – 319 b.
8. Iskandarning harbiy yurishlari. Tarjima, so‘zboshi va izohlar mualliflari: A. Ahmadov, M. Hamdamova. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 600 b.
9. Xo‘jayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar: qadimgi va ilk o‘rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 332 b.
10. Isomatov M.M. Eftaliylar davlati va uning Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni. Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Dushanbe, 2009. – 50 b.
11. Xo‘jayev A. O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari: Turkiston Xitoy yozma manbalarida. – Toshkent: Fan, 2024. – 464 b.
12. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t-turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 488 b.
13. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2022. – 648 b.
14. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Sharq bayoz, 1993. – 128 b.
15. Rtveladze E.V. Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari, davlatlari va madaniyatlari. – Toshkent: Patent Press, 2005. – 288 b.
16. Boboyorov G‘. G‘arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. – 224 b.
17. O‘taxo‘jayev A. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari. – Toshkent: Art-Flex, 2010. – 219 b.
18. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Akademiya, 2008. – 432 b.